



SIGNIFICANCE OF STRUCTURAL AND FUNCTIONAL VASCULAR CHANGES IN PATIENTS WITH LIVER CIRRHOSIS

Abdirasulov Alovuddin Yusuf o'g'li
Scientific Supervisor: Assoc. Prof.
Yarmukhamedova Saodat Khabibovna

Samarkand State Medical University

Abstrac: Today, liver cirrhosis (LC) remains one of the most severe challenges in the field of hepatology. This disease manifests not only through the destruction of the liver parenchyma but also via profound pathology of the systemic and regional hemodynamics. Investigating intrahepatic vascular remodeling, the development of portal hypertension, hyperdynamic circulation, and endothelial dysfunction enables early diagnosis of complications and the optimization of treatment strategies.

Keywords: liver cirrhosis, portal hypertension, hemodynamics, endothelial dysfunction, vascular remodeling, Child-Pugh.

JIGAR TSIRROZI BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA QON TOMIR TIZIMIDAGI STRUKTURA-FUNKSIONAL O'ZGARISHLARNING AHAMIYATI.

Abdirasulov Alovuddin Yusuf o'g'li
Ilmiy rahbar: dots. Yarmuxamedova Saodat Xabibovna

Samarqand Davlat tibbiyot Universiteti

Annotatsiya: Bugungi kunda jigar tsirrozi (JC) gepatologiya sohasidagi eng og'ir muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Ushbu kasallik nafaqat jigar parenximasi destruksiyasi, balki tizimli va regional gemodinamikaning chuqur patologiyasi bilan ham namoyon bo'ladi. Jigar qon tomirlari remodellanishi, portal gipertenziya va giperdinamik qon aylanishi rivojlanishini, shuningdek, endotelyal disfunktsiyani o'rganish asoratlarni erta tashxislash hamda davolash strategiyasini optimallashtirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: jigar tsirrozi, portal gipertenziya, gemodinamika, endotelyal disfunktsiya, qon tomir remodellanishi, Chayld-Pyu.

Dolzarbli: Jigar tsirrozi (JC) zamonaviy gepatologiyaning eng jiddiy muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Kasallikning rivojlanishi nafaqat jigar parenximasining destruksiyasi, balki



tizimli va regional gemodinamaning chuqur buzilishlari bilan ham xarakterlanadi. Jigar ichi qon tomirlarining qayta shakllanishi (remodellanishi), portal gipertenziya va giperdinamik qon aylanish sindromi rivojlanishining patofiziologik mexanizmlarini, shuningdek, qon tomir devorining funksional holatini (endotelyal disfunktsiya) o'rganish asoratlarni erta tashxislash va davolash taktikasi optimallashtirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi: Jigar tsirrozi bo'lgan bemorlarda makro- va mikrotsirkulyator qon tomir tizimidagi strukturaviy hamda funksional o'zgarishlar xususiyatlarini baholash va ularning kasallik kechishi hamda asoratlar rivojlanishidagi ahamiyatini aniqlash.

Material va metodlar: Tadqiqotga jigar tsirrozi bilan og'riqan bemorlar (Chayld-Pyu tasnifi bo'yicha A, B va C sinflari) kiritildi. Bemorlarda portal va tizimli gemodinamika ko'rsatkichlari dopplerografik usulda, yirik qon tomirlarning (son va yelka arteriyalari) strukturaviy holati (intima-media qavati qalinligi) va funksional xususiyatlari (endotelyga bog'liq va bog'liq bo'lmagan vazodilyatatsiya) ultratovush yordamida o'rganildi. Qon zardobida endotelyal disfunktsiya markerlari (NO, endotelin-1, VEGF) darajasi tahlil qilindi.

Olingan natijalar: Jigar tsirrozi kuchayib borishi bilan tizimli qon tomir qarshiligining pasayishi va yurak otib berish hajmining ortishi (giperdinamik qon aylanishi) kuzatildi. Portal tizim qon tomirlarida yaqqol dilyatatsiya va strukturaviy remodellanish aniqlandi. Endotelyga bog'liq vazodilyatatsiyaning pasayishi va qonda endotelin-1 miqdorining ortishi jigar yetishmovchiligi darajasiga (Chayld-Pyu C sinfida) to'g'ri proporsional ekanligi isbotlandi. Qon tomir tizimidagi bu o'zgarishlar qizilo'ngach venalarining varikoz kengayishi va assit rivojlanishi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqligi aniqlandi.

Xulosa: Jigar tsirrozida qon tomir tizimidagi struktura-funksional buzilishlar va endotelyal disfunktsiya portal gipertenziya va tizimli gemodinamik buzilishlarni harakatlantiruvchi asosiy kuch hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlarni baholash kasallik asoratlarini prognoz qilish va maqsadli (target) vazoaktiv terapiyani belgilashda yuqori diagnostik va prognostik ahamiyatga ega.

Adabiyotlari:

1. **Bosch J. et al.** Портал гипертензия патофизиологияси.
2. **Iwakiri Y., Groszmann R. J.** Сурункали жигар касалликларида гипердинамик циркуляция.
3. **Bernardi M. et al.** Циррозда компенсациянинг бузилиши ва тизимли яллиғланиш.
4. **Varki A., Lal R.** Жигар циррозида эндотелиал дисфункция.
5. **Groszmann R. J.** Жигар касалликларида гипердинамик циркуляция: патофизиология.
6. **Møller S., Henriksen J. H.** Сурункали жигар касаллигида кардиопульмонар асоратлар